

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISIGA NARKOLOGIK YORDAM KO‘RSATISH  
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 24-dekabrda PQ-4075-son [qaroriga](#) muvofiq, shuningdek, narkologik kasalliklarning oldini olish, ularga tashhis qo‘yish va ularni davolashni yanada takomillashtirish, narkologiya xizmatining moddiy-texnik bazasini va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, narkologiya muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar aholiga narkologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

narkologiya xizmatini boshqarishning samarali vertikal integratsiyalashgan tashkiliy tuzilmasini tashkil etish;

narkologiya xizmatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;

bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda kapital ta’irlash, narkologiya muassasalarini tibbiyot asbob-uskunolari va inventar bilan jihozlash (qo‘shimcha jihozlash) orqali narkologiya xizmatining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

narkologiya xizmatini malakali kadrlar bilan ta’irlash, shu jumladan narkolog-shifokorlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, profilaktika qilish, tashhis qo‘yish va davolashning zamonaviy metodikalari hamda texnologiyalarini joriy etish, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Innovatsion sog‘liqni saqlash milliy palatasining O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Respublika narkologiya markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

3. Quyidagilar Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining (keyingi o‘rinlarda Markaz deb ataladi) asosiy vazifalari va faoliyatining yo‘nalishlari etib belgilansin:

narkologik kasalliklarning oldini olish, ularga tashhis qo‘yish va ularni davolashni tashkil etish tizimini takomillashtirish, narkologiya xizmati muassasalarining faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish;

narkologik kasalliklarning oldini olish, ularga tashhis qo‘yish va ularni davolashning, psixoaktiv moddalarga qaram bo‘lib qolgan shaxslarni rehabilitatsiya qilishning zamonaviy metodikalari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda joriy etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;

ushbu sohada faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar, yetakchi xorijiy markazlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

birgalikda ilmiy-tadqiqot va ta’lim loyihalarini bajarish, shifokor kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, birgalikda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun chet ellik professorlarni ilmiy faoliyatga, shuningdek, xalqaro grantlarni jalb qilish;

joriy narkologik vaziyatga e’tibor qaratish bo‘yicha o‘z vaqtida munosib choralar ko‘rish uchun takliflar ishlab chiqish maqsadida sherik tashkilotlar, shu jumladan xorijiy yirik tashkilotlar bilan xamkorlikda narkologik kasalliklar tarqalishini, psixoaktiv moddalar iste’mol qilish modellari o‘zgarishini baholashga qaratilgan davriy tadqiqotlar o‘tkazish.

4. Belgilab qo‘yilsinki:

Markaz O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Respublika narkologiya markazining huquqiy vorisi hisoblanadi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Respublika narkologiya dispanseri, viloyatlar va Toshkent shahar narkologiya dispansyerlari Markazning tashkiliy-uslubiy hududiy bo‘linmalari hisoblanadi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, budjetdan tashqari mablag'lar, faoliyat ixtisosligi bo'yicha ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan daromadlar, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar narkologiya muassasalari faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

5. Quyidagilar:

2019 — 2022-yillarda O'zbekiston Respublikasi narkologiya xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi [1-ilovaga](#) muvofiq;

2020 — 2022-yillarda narkologiya xizmati muassasalarining bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashning asosiy parametrlari [2-ilovaga](#) muvofiq;

2020 — 2022-yillarda narkologiya muassasalarini zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlashning (qo'shimcha jihozlashning) asosiy parametrlari [3-ilovaga](#) muvofiq;

narkologik bemorlarni majburiy davolash uchun narkologiya dispansyerlari o'rinlar fondining quvvati [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

6. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq jamoat joylarida mast holatda bo'lgan shaxslar, agar ularga tibbiy yordam ko'rsatish zarur bo'lgan holatlarda (alkogoldan og'ir zaharlanish holatlari bundan mustasno), Qoraqalpog'iston Respublikasi Respublika narkologiya dispanseri, viloyatlar va Toshkent shahar narkologiya dispansyerlari huzuridagi tibbiy yordam ko'rsatish punktlariga olib kelinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent shahar narkologiya dispanseri qoshida mast holatda bo'lgan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish punktini bir oy muddatda tashkil etsin.

7. Belgilab qo'yilsinki, narkologiya muassasalari binolari va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, shuningdek, ularni tibbiyot uskunalari, ixtisoslashgan mebel va inventar bilan jihozlash har yili O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetida nazarda tutiladigan mablag'lar, shuningdek, xorijiy davlatlar, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari (qarzlari) va grantlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar doirasida amalga oshiriladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti va O'zbekiston Respublikasining 2020 — 2022-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Moliya vazirligiga narkologiya muassasalarining binolari va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda kapital ta'mirlash, shuningdek, ularni tibbiyot uskunalari bilan jihozlashga oid asoslantirilgan hisob-kitoblar hamda manzilli ro'yxatlari har yili 1-iyulgacha bo'lgan muddatda taqdim etilishini ta'minlasin;

ushbu qarorda belgilangan vazifalar va yo'nalishlarni hisobga olgan holda, "Sog'liqni saqlash" tarmog'i bo'yicha har yili nazarda tutiladigan budjet mablag'lari doirasida Markazning yangilangan tashkiliy-shtat tuzilmasini hamda ta'sis hujjatlarini bir oy muddatda tasdiqlasin;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [5-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari A.A. Abduxakimov va O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri A.K. Shodmonov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 3-oktabr,  
842-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-oktabrdagi 842-son [qaroriga](#)

## 2019 — 2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasi narkologiya xizmatini yanada rivojlantirish

## CHORA-TADBIRLARI DASTURI

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r                                                 | Tadbirlar nomi                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | Amalga oshirish mexanizmi                                            | Amalga oshirish muddatlari | Summa | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul ijrochilar                                                                                                                                              |
|-----------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|----------------------------|-------|----------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>I. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                                                      |                            |       |                            |                                                                                                                                                                |
| 1.                                                  | Narkologiya xizmatining zamonaviy tuzilmasi, vazifalari va ehtiyojlariga muvofiq narkologiya muassasalarining yangi shtat normativlarini tasdiqlash.                                                                                                                                                            | Tashkiliy tadbirlar                                                  | 2020-yil 1-yanvar          | —     | Ijrochilar mablag‘lari     | Sog‘liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi                                                                       |
| 2.                                                  | Alkogolga qaram bo‘lgan shaxslar uchun cheklov o‘rnatilgan kasbiy faoliyat turlari ro‘yxatini tasdiqlash.                                                                                                                                                                                                       | Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi                               | 2020-yil 1-fevral          | —     | Ijrochilar mablag‘lari     | Sog‘liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi |
| 3.                                                  | “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni asosida ichki ishlar organlarida narkologik bemorlarni majburiy davolash va profilaktik kuzatishni ta’minlash bo‘yicha axborot almashish va ichki ishlar organlari bilan hamkorlik qilish uchun normativ-huquqiy baza yaratish. | Sog‘liqni saqlash vaziri va ichki ishlar vazirining qo‘shma buyrug‘i | 2020-yil 1-fevral          | —     | Ijrochilar mablag‘lari     | Sog‘liqni saqlash vazirligi, IIV                                                                                                                               |
| 4.                                                  | Majburiy davolash uchun                                                                                                                                                                                                                                                                                         | Sog‘liqni saqlash                                                    | 2020-yil 1-fevral          | —     | Ijrochilar mablag‘lari     | Sog‘liqni saqlash vazirligi                                                                                                                                    |

|                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                       |                 |   |                        |                                                                                                                                                |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------|-----------------|---|------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                                                                                                                                                         | ixtisoslashgan davolash-profilaktika muassasalarida alkogolizmga, giyohvandlik yoki toksikomaniyaga yo‘liqqan shaxslarga ixtisoslashgan narkologik yordam ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash.                                                                | vazirining buyrug‘i                   |                 |   |                        |                                                                                                                                                |
| 5.                                                                                                                                                                                                      | BMTning Giyohvand moddalar va jinoyat bo‘yicha boshqarmasi / Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan taklif etilgan Xalqaro standartlar asosida giyohvandlikka qaramlikni davolash bo‘yicha xizmatlar uchun milliy sifat standartlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash. | sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i | 2020-yil 1-mart | — | Ijrochilar mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi                                                                                                                    |
| 6.                                                                                                                                                                                                      | Ilg‘or xorijiy texnologiyalarni hisobga olgan holda, narkologik bemorlarga tashhis qo‘yish, ularni davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish standartlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash.                                                                          | Sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i | 2020-yil 1-may  | — | Ijrochilar mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi                                                                                                                    |
| <b>II. Narkologik kasalliklarning oldini olish, ularga erta tashhis qo‘yish, ularni davolash hamda narkologik bemorlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish chora-tadbirlarini takomillashtirish</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                       |                 |   |                        |                                                                                                                                                |
| 7.                                                                                                                                                                                                      | Psixoaktiv moddalarni notibbiy maqsadda iste‘mol qilish “xavf guruhi”ni erta aniqlash va profilaktik ishlarining samarali usullarini joriy etish, narkologiya muassasalarining sog‘liqni saqlashning                                                                          | Chora-tadbirlar dasturi               | 2020-yil 1-may  | — | Ijrochilar mablag‘lari | Sog‘liqni saqlash vazirligi, IIV, Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, “Mahalla” fondi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi |

|     |                                                                                                                                                                                                                                         |                     |                    |   |                                           |                                                                                                                                                                                     |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|--------------------|---|-------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|     | birlamchi bo'g'ini muassasalari, ta'lim muassasalari, huquqni muhofaza qilish organlari, mahalla faollari bilan o'quv seminarlarini o'tkazish orqali hamkorlik qilish mexanizmini takomillashtirish.                                    |                     |                    |   |                                           |                                                                                                                                                                                     |
| 8.  | Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, aholini psixoaktiv moddalarning yangi turlari tarqalganidan va ularni iste'mol qilishning salbiy oqibatlaridan keng xabardor qilish.                                                   | Tashkiliy tadbirlar | 2019 — 2021-yillar | — | Ijrochilar mablag'lari                    | Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, MTRK, "Mahalla" fondi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi |
| 9.  | Psixoaktiv moddalarga qaram bo'lgan va og'ir ruhiy va somatik asoratlarni boshidan o'tkazayotgan bemorlar uchun intensiv terapiya palatalarini tashkil etish orqali shoshilinch narkologik yordam tizimini rivojlantirish.              | Tashkiliy tadbirlar | 2019 — 2021-yillar | — | Ijrochilar mablag'lari                    | Sog'liqni saqlash vazirligi                                                                                                                                                         |
| 10. | Yoshi katta narkologik bemorlarni, shuningdek og'ir kasalliklarga chalingan narkologik bemorlarni somatik kasalliklarga chalingan narkologik bemorlarni majburiy davolash uchun maxsus bo'limlar tashkil etish orqali majburiy davolash | Tashkiliy tadbirlar | 2020-yil 1-mart    | — | Budjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida | Sog'liqni saqlash vazirligi                                                                                                                                                         |



|                                            |                                                                                                                                                                                   |                     |                    |                       |                                                     |                                                                                                                                                                             |
|--------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|--------------------|-----------------------|-----------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 16.                                        | Narkologiya muassasalari binolarida ta'mirlash-qurilish ishlarini olib borish va ularni rekonstruksiya qilish.                                                                    | Tashkiliy tadbirlar | 2020 — 2022-yillar | 147 mlrd. so'm        | O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari | Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 17.                                        | Narkologiya muassasalarini zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlash (qo'shimcha jihozlash).                                                                                  | Tashkiliy tadbirlar | 2020 — 2021-yillar | 1,5 mln. AQSh dollari | O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari | Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| <b>V. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish</b> |                                                                                                                                                                                   |                     |                    |                       |                                                     |                                                                                                                                                                             |
| 18.                                        | Xorijiy mamlakatlarning yetakchi klinikalarida "Narkologiya", "Tibbiy psixologiya va psixoterapiya" mutaxassisliklari bo'yicha malaka oshirish kurslarida shifokorlarni o'qitish. | Tashkiliy tadbirlar | 2019 — 2021-yillar |                       | Ijrochilar mablag'lari, homiylar mablag'lari        | Sog'liqni saqlash vazirligi                                                                                                                                                 |
| 19.                                        | Xalqaro tashkilotlar va yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda psixoaktiv moddalarga qaramlik muammolari bo'yicha birgalikda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish. | Tashkiliy tadbirlar | 2020 — 2021-yillar |                       | Ijrochilar mablag'lari                              | Sog'liqni saqlash vazirligi                                                                                                                                                 |
| 20.                                        | Narkologiya muassasalari xodimlari uchun zamonaviy davolash-                                                                                                                      | Tashkiliy tadbirlar | 2019 — 2021-yillar |                       | Ijrochilar mablag'lari, partnerov                   | Sog'liqni saqlash vazirligi                                                                                                                                                 |

|                                                                                                                |  |  |  |  |  |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|--|--|--|
| reabilitatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xalqaro tashkilotlar ko'magida treninglar tashkil etish. |  |  |  |  |  |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|--|--|--|

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-avgustdagi 511-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.08.2021-y., 09/21/511/0793-son)

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-oktabrdagi 842-son qaroriga  
2-ILOVA

**2020 — 2022-yillarda narkologiya xizmati muassasalarining binolari va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashning**

**ASOSIY PARAMETRLARI**

| T/r                           | Obyekt nomi (quvvati)                                                                                                                                                                                     | Qiymati (mlrd so'm)      | Foydalanishga topshirish muddati                                                                                           | Mas'ul ijrochilar                                           |
|-------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| <b>I. Qurilish obyektlari</b> |                                                                                                                                                                                                           |                          |                                                                                                                            |                                                             |
| 1.                            | Samarqand viloyati narkologiya dispanserining statsionarini qurish (ixtiyoriy davolash uchun 140 ta o'ringa mo'ljallangan statsionar va majburiy davolash uchun 100 ta o'ringa mo'ljallangan statsionar). | 12,0                     | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag'lari doirasida                   | Sog'liqni saqlash vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi   |
| 2.                            | Toshkent shahar narkologiya dispanserining yangi korpusini qurish (ixtiyoriy davolash uchun 30 ta o'ringa mo'ljallangan statsionar, sutkada 70 ta ekspertiza o'tkazishga mo'ljallangan ekspert bo'limi).  | 12,0                     | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag'lari doirasida                   | Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar hokimligi      |
| 3.                            | Majburiy davolash uchun Toshkent shahar narkologiya kasalxonasining yangi binosini qurish (90 ta o'ringa mo'ljallangan statsionar).                                                                       | 10,0                     | O'zbekiston Respublikasining 2020 — 2022-yillarga mo'ljallangan tasdiqlanadigan investitsiya dasturi mablag'lari doirasida | Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar hokimligi      |
| 4.                            | Surxondaryo viloyati narkologiya dispanserining yangi korpusini qurish (100 ta o'ringa mo'ljallangan statsionar, sutkada 30 ta tashrifga mo'ljallangan ambulatoriya).                                     | 13,0<br>(2019-yil — 7,0) | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag'lari doirasida                   | Sog'liqni saqlash vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi |
| 5.                            | Shargun shahrida Surxondaryo viloyati narkologiya dispanserining majburiy davolash                                                                                                                        | 8,5                      | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O'zbekiston                                                                           | Sog'liqni saqlash vazirligi,                                |

|                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |              |                                                                                                          |                                                                              |
|---------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|
|                                             | uchun yangi korpusini qurish, unga majburiy davolash uchun mustaqil shifoxona maqomini berish (100 ta o‘ringa mo‘ljallangan statsionar).                                                                                                                                                                |              | Respublikasi Investitsiya dasturi mablag‘lari doirasida                                                  | Surxondaryo viloyati hokimligi                                               |
| 6.                                          | Jizzax viloyati narkologiya dispanserining alohida korpusini qurish (40 ta tashrifga mo‘ljallangan dispanser bo‘limi).                                                                                                                                                                                  | 4,0          | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag‘lari doirasida | Sog‘liqni saqlash vazirligi, Jizzax viloyati hokimligi                       |
| 7.                                          | Namangan viloyati narkologiya dispanserining yangi alohida korpusini qurish (majburiy davolash uchun 60 ta o‘ringa mo‘ljallangan statsionar (50 ta mavjud + 10 ta qo‘shimcha o‘rin)).                                                                                                                   | 4,52         | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag‘lari doirasida | Sog‘liqni saqlash vazirligi, Namangan viloyati hokimligi                     |
| 8.                                          | Xorazm viloyati narkologiya dispanserining yangi binosini qurish (ixtiyoriy davolash uchun 40 ta o‘ringa mo‘ljallangan statsionar va majburiy davolash uchun 50 ta o‘ringa mo‘ljallangan statsionar, sutkada 75 ta tashrifga mo‘ljallangan ambulatoriya).                                               | 15,0         | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag‘lari doirasida | Sog‘liqni saqlash vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi                       |
|                                             | <b>Jami: 8 ta obyekt (710 o‘rin).</b>                                                                                                                                                                                                                                                                   | <b>79,02</b> |                                                                                                          |                                                                              |
| <b>II. Rekonstruksiya qilish obyektlari</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |              |                                                                                                          |                                                                              |
| 9.                                          | Andijon viloyatining narkologiya dispanserini tashkil etish bo‘yicha rekonstruksiya qilish uchun bino ajratish (ixtiyoriy davolash uchun 80 ta o‘ringa mo‘ljallangan statsionar va majburiy davolash uchun 40 ta o‘ringa mo‘ljallangan statsionar, sutkada 50 ta tashrifga mo‘ljallangan ambulatoriya). | 20,0         | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag‘lari doirasida | Sog‘liqni saqlash vazirligi, Andijon viloyati hokimligi                      |
| 10.                                         | Taxiatosh shahridagi Respublika narkologiya dispanserini (QR) rekonstruksiya qilish (100 ta o‘ringa mo‘ljallangan statsionar va sutkada 75 ta tashrifga mo‘ljallangan ambulatoriya).                                                                                                                    | 10,0         | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag‘lari doirasida | Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi |
| 11.                                         | Toshkent viloyati narkologiya dispanserini (Angren shahri) Nurafshon shahriga ko‘chirish, buning uchun tegishli bino ajratish va uni rekonstruksiya qilish (ixtiyoriy davolash uchun                                                                                                                    | 14,0         | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag‘lari doirasida | Sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi                     |

|     |                                                                                                                                                                                                            |             |                                                                                                          |                                                             |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
|     | 30 ta o'ringa mo'ljallangan statsionar va majburiy davolash uchun 50 ta o'rin, sutkada 30 ta tashrifga mo'ljallangan ambulatoriya).                                                                        |             |                                                                                                          |                                                             |
|     | <b>Jami: 3 ta obyekt (300 o'rin).</b>                                                                                                                                                                      | <b>44,0</b> |                                                                                                          |                                                             |
|     | <b>III. Kapital ta'mirlash obyektlari</b>                                                                                                                                                                  |             |                                                                                                          |                                                             |
| 12. | Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (90 ta o'ringa mo'ljallangan statsionar va 6 o'rinli reanimatsiya bo'limi).                                                       | 14,0        | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag'lari doirasida | Sog'liqni saqlash vazirligi                                 |
| 13. | Qashqadaryo viloyati narkologiya dispanseri (ixtiyoriy davolash uchun 110 ta o'ringa mo'ljallangan statsionar va majburiy davolash uchun 40 ta o'rin, sutkada 72 ta tashrifga mo'ljallangan ambulatoriya). | 9,0         | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi mablag'lari doirasida | Sog'liqni saqlash vazirligi, Qashqadaryo viloyati hokimligi |
| 14. | Toshkent shahar narkologiya dispanseri (60 ta o'ringa mo'ljallangan (ambulatoriya va statsionar bo'lim hamda 6 o'rinli reanimatsiya bloki, to'siq o'rnatish, isitish tizimini ta'mirlash).                 | 0,7         | 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dastur mablag'lari doirasida  | Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar hokimligi      |
|     | <b>Jami kapital ta'mirlash: 3 ta obyekt (312 ta o'rin).</b>                                                                                                                                                | <b>23,7</b> |                                                                                                          |                                                             |

Izohlar:

1. Ushbu qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash obyektlaridagi ishlar 2020 — 2022-yillarga tasdiqlanadigan Investitsiya dasturi mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.

2. Ishlar narxi boshlang'ich narxdir, qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashning yakuniy narxi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ekspertizadan o'tkazish hamda tender savdolari yakunlari bo'yicha aniqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-oktabrdagi 842-son qaroriga  
3-ILOVA

### 2020 — 2022-yillarda narkologiya muassasalarini zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlashning (qo'shimcha jihozlashning)

#### ASOSIY PARAMETRLARI

| T/r | Hududlar | 1                                           | 2                                  | 3                 | 4                                                          | 5                      |  |
|-----|----------|---------------------------------------------|------------------------------------|-------------------|------------------------------------------------------------|------------------------|--|
|     |          | Bakterial filtrli jarrohlik elektrtortgichi | Kardiosinxronlangan defibrillyator | Elektrokardiograf | Karavot oldidagi stolcha va tumbaga ega funksional karavot | Qonning klinik analizi |  |

|     |                                                                                        |             |             |             |              |              |  |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------|-------------|-------------|-------------|--------------|--------------|--|
| 1.  | Qoraqalpogʻiston Respublikasi                                                          | 1           | 1           | 1           | 2            | -            |  |
| 2.  | Andijon viloyati                                                                       | 1           | 1           | 2           | 2            | 1            |  |
| 3.  | Buxoro viloyati                                                                        | -           | 1           | 1           | -            | -            |  |
| 4.  | Jizzax viloyati                                                                        | 1           | 1           | 1           | -            | 1            |  |
| 5.  | Qashqadaryo viloyati                                                                   | 1           | 1           | 1           | -            | 1            |  |
| 6.  | Navoiy viloyati                                                                        | 1           | 1           | 1           | 2            | 1            |  |
| 7.  | Namangan viloyati                                                                      | -           | 1           | 1           | -            | 1            |  |
| 8.  | Samarqand viloyati                                                                     | -           | -           | 1           | 2            | 2            |  |
| 9.  | Surxondaryo viloyati                                                                   | 1           | 1           | 2           | 2            | 2            |  |
| 10. | Sirdaryo viloyati                                                                      | 1           | -           | 1           | 2            | 1            |  |
| 11. | Toshkent viloyati                                                                      | 1           | 1           | 1           | 2            | 1            |  |
| 12. | Fargʻona viloyati                                                                      | 1           | 2           | 2           | 2            | 2            |  |
| 13. | Xorazm viloyati                                                                        | -           | 1           | 1           | -            | -            |  |
| 14. | Majburiy davolash uchun Toshkent shahar narkologiya shifoxonasi                        | -           | -           | 1           | -            | 1            |  |
| 15. | Toshkent shahar narkologiya dispanseri                                                 | -           | -           | 1           | 6            | -            |  |
| 16. | Respublika narkologiya markazi                                                         | -           | 1           | -           | 6            | 1            |  |
|     | <b>JAMI:</b>                                                                           | 3           | 13          | 18          | 28           | 15           |  |
|     | <b>Birlik narxi ming AQSh dollarida</b>                                                | 4,0         | 6,0         | 4,0         | 5,0          | 15,0         |  |
|     | <b>JAMI: qiymat AQSh dollarida</b>                                                     | <b>36,0</b> | <b>78,0</b> | <b>72,0</b> | <b>140,0</b> | <b>225,0</b> |  |
|     | <b>Asbob-uskunalarining umumiy qiymati 1 507, 42 ming AQSh dollarini tashkil etadi</b> |             |             |             |              |              |  |

Izoh. Tibbiyot uskunolari bilan jihozlash (qoʻshimcha jihozlash) parametrlari narkologiya muassasalarida mavjud zamonaviy tibbiyot uskunalarini hisobga olgan holda hisoblab chiqilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-oktabrdagi 842-son qaroriga  
4-ILOVA

**Narkologik bemorlarni majburiy davolash uchun narkologiya dispansyerlari o‘rinlar  
fondining quvvati**

| T/r | Hududlar                         | Majburiy davolash<br>uchun narkologik<br>o‘rinlarning zarur<br>soni | O‘rinlarning<br>mavjud soni | Qo‘shimcha<br>tashkil etish<br>talab<br>etiladigan<br>o‘rinlar* | Amalga<br>oshirish<br>muddatlari |
|-----|----------------------------------|---------------------------------------------------------------------|-----------------------------|-----------------------------------------------------------------|----------------------------------|
| 1.  | Qoraqalpog‘iston<br>Respublikasi | 90                                                                  | 70                          | 20                                                              | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 2.  | Andijon viloyati                 | 60                                                                  | 40                          | 20                                                              | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 3.  | Buxoro viloyati                  | 92                                                                  | 72                          | 20                                                              | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 4.  | Jizzax viloyati                  | 40                                                                  | 30                          | 10                                                              | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 5.  | Qashqadaryo viloyati             | 100                                                                 | 40                          | 60                                                              | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 6.  | Navoiy viloyati                  | 50                                                                  | 50                          | -                                                               | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 7.  | Namangan viloyati                | 50                                                                  | 50                          | -                                                               | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 8.  | Samarqand viloyati               | 100                                                                 | 100                         | -                                                               | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 9.  | Surxondaryo viloyati             | 100                                                                 | 100                         | -                                                               | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 10. | Sirdaryo viloyati                | 30                                                                  | 15                          | 15                                                              | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 11. | Toshkent viloyati                | 65                                                                  | 50                          | 15                                                              | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 12. | Farg‘ona viloyati                | 160                                                                 | 80                          | 80                                                              | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 13. | Xorazm viloyati                  | 80                                                                  | 50                          | 30                                                              | 2019 —<br>2022-yillar            |
| 14. | Toshkent shahri                  | 90                                                                  | 60                          | 30                                                              | 2019 —<br>2022-yillar            |
|     | <b>Jami:</b>                     | <b>1107</b>                                                         | <b>807</b>                  | <b>300</b>                                                      |                                  |

\* Sog‘liqni saqlash muassasalarida mavjud bo‘lgan umumiy o‘rinlar fondi doirasida shakllantiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-oktabrdagi 842-son qaroriga  
5-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etilayotgan ayrim  
qarorlari**

**RO‘YXATI**

1. Vazirlar Mahkamasining “Surunkali alkogolizm va giyohvandlik kasaliga chalingan bemorlarni davolash uchun ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasalari tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida” 1999-yil 24-avgustdagi 401-son qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2016-yil 4-yanvardagi O‘RQ-399-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 6-apreldagi 185-son qaroriga 4-ilovaning **3-bandi** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-yil, № 4-son, 40-modda).

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2019-y., 09/19/842/3868-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.08.2021-y., 09/21/511/0793-son)*